

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJOD YO'LI

Qobilova Madina Sobir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

21-04-guruh talabasi

Annotatsiya: *Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi ulug' siymolardan biridir. Zamondoshlari uni "Nizomiddin Mir Alisher" deb ulug'laganlar. "Nizomiddin" - din nizomi deganidir. Ko'pincha, mansab egalariga nisbatan aytilgan "mir" - amir demakdir.*

Kalit so'zlar: *Mutafakkir, shoir, siymo, faylasuf, davlat arbobi, madrasa, devon, g'azal, ruboiy.*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy- shoir, mutafakkir, jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi, faylasuf.

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevral kuni Xuroson davlatining poytaxti — hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot shahrining Bog'i Davlatxona mavzesida tug'ildi. Otasi G'iyosiddin Muhammad - Temuriylar saroyida xizmat qilgan, o'z davrining nufuzli kishilaridan biri, o'g'lining tarbiyasi va ta'limiga jiddiy e'tibor bergan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi ekani aytiladi. Navoiyning ota-onasi haqida ma'lumotlar kam, u o'z asarlarida ham qarindoshlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tmagan. Navoiyning Darvesh-ali ismli ukasi bo'lgani haqida ma'lumotlar bor.

XV asrning yetuk adabiyotshunos olimlaridan biri bo'lgan Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirot un-shuaro" ("Shoirilar tazkirasi")da Navoiyning otasi haqida "Navoiyning otasi Abdulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig'atoy ulusi ulug'laridan edi" deya qisqacha ma'lumot berib o'tgan. Shu bilan birgalikda u G'iyosiddin Muhammadning harbiy bo'lganini ham ta'kidlagan.

Bo'lajak shoirning she'riyatdagi birinchi ustozlari tog'asi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar bo'lgan. Navoiy ular haqida "Majolis-un-nafois"da, xususan, Qobuliy haqida: *"Yaxshi tab'i bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi..."* deya, G'aribiy haqida esa: *"Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi..."* deya qisqacha to'xtalib o'tgan.

1447 yilda Shohrux Mirzo vafot etadi. Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun urush ketib, yurtda taloto'plar boshlanganda Alisher Navoiyning

oilasi ham ko'p insonlar qatori yurtni tark etadi. Yo'lda yosh Alisher buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyini uchratadi. Tarixchi Alisher bilan tanishadi, uning ilmi va farosatini olqishlaydi, duo qiladi. 1452 yili Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur Hirot taxtiga o'tiradi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavor shahriga hokim yetib saylanadi, biroq oradan ko'p o'tmay vafot etadi. Bu vaqtda esa Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'yadi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni o'z qaramog'iga oladi. 1457-1463 yillarda Navoiy Mashhad madrasalarida ta'lim oladi.

1463 yilda esa Hirotga qaytadi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahr'dan kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiy ga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari — Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozisi Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan.

Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirot'dan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi.

1500 yillarda shoirning hayot sharoiti qiyinlashadi. Salomatligi yomonlashadi, biroq u ijoddan to'xtamaydi. 1501 yil 3 yanvarda Navoiy kasallikdan vafot etadi. Butun Hirot xalqi buyuk shoiri uchun 7 kun davomida motam tutadi.

Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda esa "Foniy" taxalluslarini qo'llagan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va nihoyat, to'rtinchi qismiga "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") degan nomlar berildi. "Xazoyin ul-maoniy" inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r va o'n'larcha she'r turlarini o'z ichiga olgan majmua bo'lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher

Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she'rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo'lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog'langan. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" ga qadar "Ilk devon", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlarini tuzgan. "Xazoyin ul-maoniy" ana shu 3 devonga kirgan hamda "Navodir ul-nihoya" tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.

"Xazoyin ul-maoniy"dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir.

1472-1476-yillarda birinchi devoni "Badoye' ul-bidoya" ("Badiylik ibtidosi") devonini shoh amri va istagi bilan o'zi kitob qiladi. Mazkur devon 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddasdan tarkib topgan.

Alisher Navoiy butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo'nalishlarda qalam tebratgan.

Ushbu asarlar mutafakkirning yirik asarlaridir. Ular turli yillarda, turli yo'nalishlarda yozilgan. Navoiyning bu qadar keng qamrovda qalam tebratganidan shuni bilish mumkinki, u nafaqat shoir, balki olim, ya'ni tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf sifatida jahon ma'naviyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Alisher Navoiy fors tilida ham 12 ming misradan ortiq she'r, muammo janri haqida "Mufradot" risolasi, "Sittayi zaruriya", "Fusuli arbaa" turkum qissalarini yaratgan, "Devoni Foni" devonini tuzgan. Bu asarlar shoirning Hoqoniy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy kabi fors adabiyotining yetuk namoyondalari bilan kechgan ijodiy bahslarida tug'ilgan. Mazmunda, badiiy ifodada Navoiyning asarlari ustozlarinikidan qolishmaydi. Jumladan, Navoiy Abdurahmon Jomiyning o'zining ustozini, hammaslagi sifatida chuqur hurmat qilgan. Jomiy "Bahoriston" asarida shogirdi Navoiy haqida jumladan shunday deydi: *"...turkiy tilda hech kim Navoiydek ko'p va xo'p she'r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi"*.

"Xamsa" haqida qisqacha

Shubhasiz, Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi „Xamsa“ asaridir. Uning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyotida muhim voqelik bo'lgan. Shoir

birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq „Xamsa“ yaratdi va shu bilan turkiy tilda ko'lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. „Xamsa“ ya'ni „Besh doston“ asarini yaratish - mumtoz sharq adabiyotining eng mukammal an'alaridan biri bo'lgan. Shu sabab ham tarixda „Xamsa“ asarini yaratgan shoirlar barmoq bilan sanarli. Alisher Navoiy „Saddi Iskandariy“ dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to'xtalib, „Xamsa“ ning har bir dostoni yozilishini kunning ma'lum vaqtlarida o'qiladigan sahar, peshin, asr, shom va xufton namozlariga o'xshatadi.

Navoiy yoshligidanoq turkiy tilda besh doston yaratishni maqsad qilgan. Va u boshqa „Hamsa“ yaratgan shoirlarga nisbatan juda qisqa muddatda, ya'ni 1483-1485 yillarda yozib tugatgan. Bu davr mobaynida shoir boshqa traktatlarni ham yaratadi.

Navoiyning „Xamsa“ asari „Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Sabai' sayyor“ va „Saddi Iskandariy“ kabi yirik dostonlardan iborat.

52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi. Shoir voqealarni qadim Sharq tarixining Xusrav, Bahrom, Iskandar kabi nomlari afsonalar bilan chulg'angan shaxslar, Layli va Majnun kabi oshiqlar hayotidan olgan. Davrning dardli masalalarini, avlodlarning orzu va armonlarini ko'tarib chiqdi. „Xamsa“ zamondoshlariga nihoyatda zo'r ta'sir ko'rsatgan. Uning ustoz Abdurahmon Jomiy uni hayajon bilan olqishladi. Sulton Husayn esa shoirni o'zining oq otiga mindirib, jilovdorlik qildi.

Davlat va jamoat arbobi

Navoiy 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishlaydi. 1487-1488-yillarda Astrobod shahriga hokimlik qiladi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida yuksak vakolatli kishilardan bo'lgan. Boyqaro bolalikdagi do'stini o'ziga bosh vazir etib tayinlaydi. Podshoh Boyqaro doimo Navoiyning maslahatlariga amal qilgan, shu sababli, u boshqargan yillar, nisbatan tinchlikda, shaharsozlik, san'at rivoj topgan davrlar bo'lgan. Navoiy vazir bo'lgan yillarida Hirotda obodonlik avj olgan, madaniyat rivojlangan. Shoir o'zi bosh bo'lib, suvsiz yerlarga suv chiqargan, eski ariqlarni tozalattirgan, yangi kanallar qazdirgan. Eski binolarni ta'mirlatib, yangilarini qurdirgan. Qanchadan-qancha madrasalar, xonahoqlar soldirgan.

Jumladan „Vaqfiya“ asarida Navoiy vaqf yerlari, mulklari, miqdori, foydalanish, vaqf mulki va mablag'i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo'nalishda madrasa va xonaqohlarda o'rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritgan va o'z mablag'lari evaziga qurdirgan xayriya muassalari, ilmiy-madaniy binolar va bog'larni sanab o'tgan. Asar Navoiyning davlab arbobi sifatida va

Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattingan. Ular orasida Hirotdagi "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoiya" tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan "Dorul-huffoz" binosi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Alisher Navoiy hikmatlaridan

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

Odam — tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.

Dunyo tan olgan mutafakkir

Navoiy ijodi nafaqat O'zbekistonda, balki Yevropa, okeanorti mamlakatlarida ham yuksak qiziqish bilan o'rganiladi. Shu sabab, adabiyotshunoslik fanidan mustaqil "Navoiyshunoslik" fani vujudga keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy ijodi u yashab o'tgan davridayoq mukammal o'rganila boshlagan va hamon o'rganilmoqda. Uning ijodi va hayotiga bag'ishlab butun dunyoda minglab ilmiy ishlar, maqolalar, traktatlar, asarlar, filmlar, spektakllar, badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, o'zbek adabiyotida yozuvchi Oybekning "Navoiy" romani, (bu roman bilan Oybek o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar haqida badiiy asar yaratish an'anasiga asos soladi) Mirkarim Osimning turkum hikoyalari mashhur. Yevropada Navoiy asarlariga qiziqish katta. Bu borada ko'plab sharqshunos olimlarning ishlari misol bo'la oladi. Chunki, uning asarlari shunchaki badiiy xayolot mahsuli bo'lib qolmasdan, sharq xalqlari tarixi va falsafasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy asarlaridagi uslub, yo'nalishlar keyinchalik adabiyotda ko'plab oqimlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Buyuk sharqshunos olim Armeniy Vamberi Navoiy haqida: *"hammaga ma'lum va mashhur buyuk o'zbek shoiri"* deya e'tirof etgan. Yana bir buyuk mutafakkir, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy haqida "Boburnoma" asarida: *"Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas"* deya to'xtalib o'tgan.

Har yili 9 fevral - Navoiy tavallud topgan kun respublika bo'ylab keng miqyosda nishonlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonning har bir burchagida Navoiy nomi bilan nomlangan maskanlar va manzillar bor. Jumladan: bir viloyat (Navoiy viloyati), shahar, (Navoiy shahri), oliy o'quv yurti (Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti instituti), O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklariga Alisher Navoiy nomi berilgan. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti hamda talabalar uchun davlat stipendiyasi ham mavjud. Respublika hududlaridan tashqari Alisher Navoiy haykallari dunyoning Moskva, Minsk, Vashington, Tokio, Boku, Dushanbe, Seul kabi shaharlarida o'rnatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov Barkamol avlod orzusi. T.2000
2. Karimov Istiqlol va ma'naviyat T.1994
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.
4. N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, "O'qituvchi". T., 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, "Fan", T., 1977.
6. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. "Fan", T., 1971.
7. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1990.